

70410105-Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni
rivojlantirish magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABI

Toshkent-2024

Buyruq № 277
"24.11.2024" 08

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "08" _____ dagi 087-sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'naltirishlari va mutaxasssliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

bet

1. Umumiy tavsifi

70410105 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish mutaxassisi bo'yicha magistrat tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabning qo'llanilishi

Malaka talabari 70410105 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish mutaxassisi bo'yicha magistrat tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari

Mazkur mutaxassisi bo'yicha malaka talabari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari; mutaxassisi bo'yicha o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari; magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari; ta'limni boshqarish bo'yicha vakolati davlat organlari; oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar; oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolati davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish benuvchi tashkilot va korxonalar; oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ola-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari

Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassisi bo'yicha o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, tadbirkorlik sub'ektlarida monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish faoliyatini tashkil etish va unga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari rivojlantirishda raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi boshqaruv usullarini joriy etish va lakomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari

Davlat va nodavlat tashkilot, turli mulkchilik shaklidagi korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida monopolizatsiya qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish bo'yicha mutaxassis.

70410105 – Monopolizatsiya qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish magistratura mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlari;

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari faoliyati samaradorligini oshirish, monopolizatsiya qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish tizimini takomillashtirish jarayonlari;

tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini ta'minlash sohada yagona davlat siyosatini olib borish, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini ta'minlash hamda iste'molchi huquqlarini himoya qilish jarayonlari;

tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini tizimli tahlil qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustun mavqei suiste'mol qilishi, «kartel» kelishuvlari va til birlashtirish, insofsiz raqobatni aniqlash va ularga chek qo'yish jarayonlari;

savdolar, iqtisodiy konsentratsiya va davlat ko'magini monopolizatsiya qarshi tartibga solish jarayonlari;

bozor ishtirokchilariga yuqori likvidli, shu jumladan, tabiiy monopoliya sub'ektlari tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlardan (ishlar, xizmatlardan) foydalanishda teng shart-sharoitlarni ta'minlash jarayonlari;

qonun hujjatlarining raqobaga ta'sirini baholash, davlat organlarining raqobatni cheklovchi qarorlar qabul qilishiga va shunday harakatlarni amalga oshirishiga yo'l qo'ymaslik jarayonlari;

jinoiy faoliyatlardan olingan daromadlarni legalizatsiyaga, terrorizmi moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish jarayonlari;

tovar-xomashyo, birlashtirishda tovar derivativlari savdolari, shu jumladan, fyuchers savdolarini tartibga solish jarayonlari;

Nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyatida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jarayonlari;

Ilmiy-tadqiqot markazlari va loyihalash institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida monopol korxonalar faoliyatini tahlil qilish jarayonlari;

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- pedagogik;
- moliyaviy-iqtisodiy;
- hisob, tahlil va nazorat;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- konsalting xizmati;
- axborot-tahliliy faoliyat;

1.2.4. Kasbiy vazifalari

70410105 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish mutaxasssligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassslik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxasssligi bo'yicha pedagogik, va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

o'quv-pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi subektlarda monopoliyaga qarshi boshqaruv, raqobatni rivojlantirish va korporativ boshqaruv tizimi faoliyatini

samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishning miqdor va sifat me'zonlari iqtisodiy tizim va ob'ektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

tovar va moliya bozorlarida raqobat muhiti holatini tizimli tahlil qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustun mavqeni suiste'mol qilish, «kartel» kelishuvlari va til birliktirish, insofsiz raqobatni aniqlash va ularga check qo'yish choralari ishlab chiqish va amalga oshirish;

savdolar, iqtisodiy konsentratsiya va davlat ko'magini monopoliyaga qarshi tartibga solishni tashkil qilish;

ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tabiiy monopoliya sub'ektlarining tovarlariga (ishlariga, xizmatlariga) xarajatlarni kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makrodarajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash;

moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

Korxonalarda monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishni tashkil etish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish sohasidagi fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishning amaliy faoliyatida instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish;

tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalar korporativ boshqaruv tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga

qo'yish;

reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, korporativ boshqaruv sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik samaradorlik mezonlari asosida ularning xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

korporativ bitimlarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tekzor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid loyihaviy va dasturiy hujjatlarini ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariv va amaliy ishlar mavzusini bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ekologizm vositalarini rivojlantirish, yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirish sohasida ekspert guruhlari rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid axborotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;

iqtisodiy o'zgarishlar ularning ta'sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, oqibatlarni baholash;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ularidan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid iqtisodiy masalalar yuzasidan ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari nuqtai nazarini o'rganish borasida tahliliy ishlar olib borish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid qarorlarning samaradorligini baholash gobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish gobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish, ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korporativ tuzilmalarda ishlash chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo'llay bilish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlash chiqarish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korporativ tuzilmalar moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlash chiqarish, iqtisodiy sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarni ishlash chiqarish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishga oid loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobati rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotdarga qo'yiladigan talablar

Ilmiy faoliyat – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar hamda malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:
 1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
 2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklarning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Ma'jburiy fanlar			
1.01	TM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFQ-M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	RBUIQ11105	Raqobat va bozor ustuvorligi qonuni va iqtisodiyoti	150	5	1
1.04	KB-21105	Korporativ boshqaruv 2	150	5	1
1.05	MQB1205	Monopoliyaga qarshi boshqaruv	150	5	2
1.06	XAIDS1205	Xulq-atvor iqtisodiyoti va davlat siyosati	150	5	2
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2.3
2.00		Tanlov fanlar	900	30	2.3
	Kvalifikatsiya	Iqtisodchi (pedagog-tadqiqotchi)			
		Jami	1800	60	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1.2.3.4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1200	40	1.2.3.4
		Jami	1800	60	
		HAMMASI	3600	120	

70410105 – Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobati rivojlantirish magistratura mutaxassisligi

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learnig va ularning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, tarkibiy o'zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o'sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyalashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratlashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashtirish, iqtisodiy o'sish, mulkchilik munosabatlari, investmention muhit, o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, korporativ boshqaruv, moliyaviy bozorlar, global biznes muhit, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, monopoliya, xulq-atvor iqtisodiyoti va davlat siyosati, yangi strategiya va raqobatdoshlik, raqobat va bozor ustuvorligi iqtisodiyoti.

ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor T.Z. Teshabayev

2024 yil " 14 " 06
M.O.
KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni
rivojlantirish va Iste'molchilar
huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

Raisi o'rinbosari F. Karabayev
2024 yil " 20 " 06
M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev
2024 yil " 25 " 06
M.O.

O'zbekiston Respublikasi Davlat
aktivlarini boshqarish agentligi
huzuridagi Xususiy lashtirish va
davlat aktivlarini boshqarish
muammolarini tadqiq etish markazi

Direktor I.L. Butikov
2024 yil " 19 " 06
M.O.